

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ 8 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/SCP1342V3I8Y2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 8 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодида Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Тахририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Тахририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Воҳидова Комила Абдуллозизовна*
“ЭЛ БАЙРОҒИ” ГАЗЕТАСИ ҲАҚИДА 11-17
- Сулайманов Саламат Арепбаевич*
ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН МУХТОР ВИЛОЯТИДА ҚУРУҚЛИК ВА СУВ ТРАНСПОРТИ: МУАММО
ВА ЕЧИМЛАР (1924-1932 ЙЙ) 18-24
- Раунов Холмамат*
ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДА УРАН КОНЛАРИНИ ЎЗЛАШТИРИШ ТАРИХИ 25-32
- Мажидов Анвар Сиражович*
ИМПЕРИЯ МУСТАМЛАКАЧИЛИК СИЁСАТИНИНГ ТУРКИСТОН ТУБ ХАЛҚЛАРИНИНГ
ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА ФУҚАРОЛИК АҲВОЛИГА ТАЪСИРИ (СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ
МИСОЛИДА) 33-40
- Begatova Nasiba Xolmurzayevna*
FERMER XO‘JALIKLARI VA KLASSTER TIZIMI UCHUN O‘RTA MA‘LUMOTLI MUTAXASSISLARNI
TAYYORLASH TIZIMIDAGI YUTUQLAR VA MUAMMOLAR (SURXONDARYO VILOYATI
MISOLIDA) 41-48
- Алланазаров Мурот Мирзаевич*
БУХОРО ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ НОЗИРЛАР ШЎРОСИ ВА МИЛЛИЙ РАҲБАР
ХОДИМЛАР ФАОЛИЯТИ ХУСУСИДА 49-54
- Ismoilova Feruza Ibragimovna*
URUSH YILLARIDA XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN VA MADANIYAT SOHALARIDAGI
XIZMATLARI 55-59
- Tursunov Xurshid Nasriddinovich*
O‘ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASH SOHASI
HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI 60-64

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

- Yuldosheva Gulnoza Abdinabiyevna*
THE ROLE OF THE DIGITAL ECONOMY IN MODELING THE FINANCIAL ACTIVITIES OF
ENTERPRISES 65-70
- Oromidinov Muzaffar Pardabayevich*
DIRECTIONS FOR IMPROVING INTERNAL AUDIT IN COMMERCIAL BANKS 71-75
- Худайназарова Дилором Хайруллаевна*
ТЎҒИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ДОИРАСИДАГИ
РИСКЛАРИНИ СТРАТЕГИК ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ 76-84

<i>To'lov Ulug'bek Toshmamatovich, Jo'rayev Sirojiddin Muxiddin o'g'li</i> KO'CHMAS MULKNI SOLIQQA TORTISHDA XORIJIY DAVLATLARDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR	85-92
<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich</i> MINTAQADA XIZMAT TURLARIDAN SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	93-98
<i>Turobov Sherzod Alisherovich</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA UY XO'JALIKLARI TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATI	99-105
<i>Шамсиев Нодир Муратович</i> МЕТОДЫ ОЦЕНКИ ПОКАЗАТЕЛЕЙ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ ПРИ АНАЛИЗЕ РЕЙТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ИХ КАЧЕСТВЕННОЕ ОПИСАНИЕ	106-110
<i>Zaripova Moxira Zarip qizi</i> AGRAR SOHAGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	111-114
<i>Узайдуллаев Шерзод Шукуруллаевич</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ИННОВАЦИОН ИНФРАТУЗИЛМАНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ОМИЛЛАРИ	115-121
<i>Atabayeva Karomat Rajabovna, Rajabova Maftuna Farhod qizi</i> O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINING RIVOJLANISHI VA TAHLILI	122-127
<i>Жумаева Мухлиса Абдуғани қизи</i> МАМЛАКАТДА АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	128-137
<i>Камалов Акмал Сайдакбарович, Саматов Ғаффор Аллақулович</i> ГЕОИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАР ШАРОИТИДА ТРАНСПОРТ ЛОЙИХАЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШГА БЎЛГАН ЁНДАШУВЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ	138-150
<i>Мамадиёров Олимжон Умарович</i> ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИ ТАЪМИНЛАШ НАЗАРИЯЛАРИ ЭВОЛЮЦИЯСИ.....	151-158
<i>Раббимов Жахонгир Эшбоевич</i> ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ОПЕРАЦИОН РИСКЛАРНИНГ МОҲИЯТИ, УЛАРНИНГ ЮЗАГА КЕЛИШ САБАБЛАРИ	159-164
<i>Кулибоев Азамат Шоназарович</i> ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ	165-174

Гадоев Сўҳроб Жумакулович
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ КРЕДИТИНИНГ ТАЪМИНОТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ
ЙЎЛЛАРИ 175-181

Бекжанов Дилмурад Йўлдашович
ЭМПИРИК ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ АСОСИДА ТУРИСТИК ДЕСТИНАЦИОН
МЕНЕЖМЕНТ ЖАРАЁНИ ИШТИРОКЧИЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ БАҲОЛАШ 182-193

09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Boydadayev Abdurroхтон Tolibjon o'g'li
SHARQ VA G'ARB IRRATSIONAL FALSAFASIDA PANTEISTIK QARASHLARNING QIYOSIY
TAHLILI (J.RUMIY VA F.NITSSHE FALSAFASI MISOLIDA) 194-200

Xayridinov Abbosxon Anvarovich
GLOBALLASHUV JARAYONIDA MA'NAVIY MA'RIFIY INQIROZLARNING OLDINI OLISHDA
MARKAZIY OSIYO QADRIYATLARINI YUKSALTIRISH ISTIQBOLLARI 201-205

Quramboyev Alisher Maxsudovich
TEMURIYLAR DAVRIDA IJTIMOY ADOLAT TAMOIYLLARINING AMAL QILISHI 206-211

Jo'rayev Alisher Tulqinboyevich
JAMIYAT MILLIY ASOSLARINI MUSTAHKAMLASH – DAVLATNING USTUVOR
MAQSADI..... 212-217

Turabova Sevara Kattaqulovna
ILMIY VAHS FENOMENINING MANTIQUIY- GNOSEOLOGIK MAQOMINI O'RGANISHDA
KONSEPTUAL-METODOLOGIK YONDOSHUV 218-224

Пардаева Марҳабо Давлатовна
АЛИШЕР НАВОЙ АСАРЛАРИДА ИЛМГА ОИД ҚАРАШЛАРИНИНГ НАҚШБАНДИЯ
ҲОЯЛАРИ БИЛАН УЙҒУНЛИГИ 225-233

Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich
NIKON MUNOSABATLARINING TADRIJIY RIVOJLANISHI 234-240

Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna
DINIY MANBALARDA GO'ZALLIK TO'G'RISIDAGI FALSAFIY QARASHLAR 241-246

Юсупова Феруза Зойировна
АХЛОҚИЙ ИДЕАЛ – ЁШЛАР МАЪНАВИЙ ЮКСАЛИШИНING МЕЗОНИ 247-251

Teshaboev Muhiddin Marifovich
IJTIMOIY ADOLATNI TA'MINLASHNING PRINSIPIAL MASALALARI 252-257

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Soatova Nodira Isomitdinovna

LIRO-EPIK ASARLARDA POETIK FIKRNING BADIY IFODASI258-265

Narmuratov Zayniddin Radjabovich

FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR LINGVOMADANIY BIRLIK SIFATIDA266-269

Yusupova Omina Muhammadzoir kizi

DIFFERENT CLASSIFICATION OF FAIRYTALE DISCOURSE IN WORLD AND UZBEK FOLKLORE270-276

Бозорова Хулкар Одинакуловна

РУССКИЙ ЯЗЫК КАК СОСТАВЛЯЮЩАЯ СОДЕРЖАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ277-282

Matyakubov Oybek Quralbayevich

KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA «KONSEPT» TUSHUNCHASI283-288

Фатуллаева Камола Рахматуллаевна

ТЕРМИНЛАРНИНГ БЕЛГИЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТАСНИФИ289-293

Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna

O'ZBEK TILIDA KAUZATIV FE'LLARNING YASALISH USULLARI294-299

Xamzayev Otaxon Erkinovich

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KASB-HUNARGA OIDMAQOLLARNING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI300-305

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

Абдурахманова Нодирахон

ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В СНГ306-310

Сафоева Садокат Мусоевна

ЭКОСИСТЕМА СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ: ИССЛЕДОВАНИЕ РОЛЕЙ ЗАИНТЕРЕСОВАННЫХ СТОРОН В КОНТЕКСТЕ ГРАЖДАНСКОГО ПРАВА311-320

Абдуллаева Маликабону Эркин қизи

ХАЛҚ ТАЪЛИМИ СОҲАСИДА КОРРУПЦИЯНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШГА ОИД АЙРИМ ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИНИНГ ҚИЁСИЙ ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛИ321-330

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Zoirova Lola Xamidovna

TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA "INSON ORGANIZMINING RADIATSIYAGA SEZGIRLIGI" MAVZUSINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN

FOYDALANISH	331-336
<i>Ibragimov A'lamjon Amrilloevich</i> KOGNITIV SIFATLARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI (MAKTAB PEDAGOG XODIMLARI MISOLIDA)	337-343
<i>Madaminov Azimbek Egamberganovich, Xalillayev O'ktam Sobir o'g'li</i> YOSH GANDBOLCHI DARVOZABONLARNI O'YIN TEXNIKASIGA O'RGATISH	344-349
<i>Fayzullaeva Madina Abdumumin kizi</i> ANALYSIS OF THE POSITIVE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE MOTIVATION AND KNOWLEDGE OF STUDENTS IN THE DEVELOPMENT OF THE EDUCATIONAL PROCESS	350-355
<i>Джумаева Хулкархан Мухаммаджонова</i> ВНУТРЕННИЕ УГРОЗЫ, НЕГАТИВНО ВЛИЯЮЩИЕ НА ДУХОВНОСТЬ СТУДЕНТОВ..	356-361
<i>Islomova Madina Asqarovna</i> INTEGRATSIYALASHGAN SUN'IY INTELLEKT TOMONIDAN YARATILGAN CHATGPT BOT YORDAMIDA NEMIS TILI O'QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	362-368
<i>Raxmatova Mexrinov Majitovna</i> YOSHLAR MA'NAVIY SALOHİYATINI O'RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	369-373
<i>Абдукаюмова Наргиза Райимовна</i> ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ МАДАНИЙ-ИНТЕЛЛЕКТУАЛ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ДИДАКТИК ШАРТЛАРИ	374-384
<i>Norboyev Farxod Chorshanbiyevich</i> KREATIVLIK VA INNOVATSIYA BORASIDA ZAMONAVIY NAZARIYALAR	385-390
<i>Borasheva Aybolgan</i> EXPLORING JAMES MCCROSKEY'S RESEARCH ON WILLINGNESS TO COMMUNICATE IN L1 CONTEXTS: IMPLICATIONS FOR LANGUAGE TEACHING AND LEARNING	391-398
<i>Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna</i> KOGNITIV TADQIQOTLARNING FANLARARO TUSHUNCHA SIFATIDAGI MOHIYATI VA MANTIQUIY TAHLILI	399-409
<i>Boboraximov Sanjar Malikjanovich</i> MAKTABDA O'QUVCHILARNI JISMONIY TARBIYALASHNING ZARURATI VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR	410-414
<i>Salimova Shahlo Sayfulloyevna</i> XAVFSIZ TA'LIM MUHITI MONITORINGINING AHAMIYATI	415-421

<i>Sayfiddinova Jamila Ziyodulla qizi</i> METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF LOGICAL REASONING IN PRIMARY SCHOOL PUPILS	422-427
<i>Xamroyev Samijon Salimovich</i> SPORT TO‘GARAHLARI ORQALI TALABALARNING JISMONIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH KOMPONENTLARI	428-433
<i>Kattaeva Feruza Shakirovna</i> DEVELOPING STUDENTS SOCIO-CULTURAL COMPETENCE BY USING SOCIO CULTURAL DISCOURSE ANALYSIS METHOD	434-441
<i>G‘ofurov Azizbek Umarjonovich</i> BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	442-447
<i>Abduraximova Umida Shuxratovna</i> BO‘LAJAK TARJIMONLARNING LINGVOMADANIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	448-454
<i>Obidova Gulmira Kuzibaevna</i> INGLIZ TILINI O‘RGANISH JARAYONIDA TEXNIKA TA‘LIM YO‘NALISHI TALABALARIDA EKOLOGIK MADANIYAT ASOSLARINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR VA INTERAKTIV METODLAR	455-460
<i>Axmadaliyeva Xosiyatpochsho Abduxayotovna</i> PROFESSIONAL TA‘LIM YO‘NALISHLARIDA TAHSIL OLAYOTGAN O‘QUVCHILARNING INGLIZ TILIDAN KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI AUTENTIK MATERIALLAR ORQALI TAKOMILLASHTIRISH	461-469

Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich

Urganch davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi,
+99891-860-88-28 sardorbek8828@gmail.com

NIKOH MUNOSABATLARINING TADRIJIY RIVOJLANISHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada nikoh munosabatlarining tarixan shakllanishi falsafiy tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada nikohning mazmun-mohiyati va turlari, oilaning jamiyatdagi o'рни va roli, nikoh munosabatlarini shakllanishida mutafakkir olimlarning qarashlari ham bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Nikoh, oila, jamiyat, er va xotin munosabatlari, guruh, sivilizatsiya, turmush.

Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich

Senior teacher at Urganch State Pedagogical Institute

GRADUAL DEVELOPMENT OF MARRIAGE RELATIONS

Abstract: This article philosophically analyzes the historical formation of marriage relations. The article also describes the essence and types of marriage, the place and role of the family in society, and the views of thinkers on the formation of marital relations.

Keywords: Marriage, family, society, husband and wife relationship, group, civilization.

Кутлимуратов Сардорбек Рустамович

Старший преподаватель УрГПИ

ПОСТЕПЕННОЕ РАЗВИТИЕ БРАЧНЫХ ОТНОШЕНИЙ

Аннотация. В данной статье философски анализируется историческое становление брачных отношений. Также в статье описаны сущность и виды брака, место и роль семьи в обществе, взгляды мыслящих ученых на формирование брачных отношений.

Ключевые слова: Брак, семья, общество, отношения мужа и жены, группа, цивилизация.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I8Y2023N32>

Kirish. Jamiyat tayanchi bo'lgan oila institutining mustahkamligini ta'minlovchi asos bu – nikohdir. Avvalo, shuni aytish joizki, nikoh shartnomasi tarixi uzoq moziyga borib taqaladi. Tarixiy taraqqiyot shuni ko'rsatadiki, oila va nikoh masalalari — jamiyat va davlat taraqqiyotining muhim omili ekanligi, insoniyat taraqqiy etishi natijasida ularning ijtimoiy funksiyalari ham o'zgarib, jamiyatdagi o'рни mustahkamlanib borishi tahlil etilgan. Jamiyat va shariatdagi huquqiy ko'rsatmalar inson hayotini muayyan tartibga solib turuvchi mezonlar hisoblanadi. Inson hayotda yolg'iz yashay olmaydi. Juft holda, er-xotin bo'lib yashashning

qonun-qoidalarini, shar'iy hukmlarini teran anglab olish o'sha oilaviy hayotning baxt-saodatini ta'min etishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Zardushtiylik dinining qadimiy kitobi — “Avesto”da oila muqaddas dargoh ekanligi, oila barqarorligida er va xotinning teng mas'ulligi, farzand tarbiyasi to'g'risidagi fikrlar bayon etilgan. Oilaning tinch va farovon bo'lishi nimalarga bog'liq ekanligi haqida esa: “Porso, inson uy tiklab, olovga, oilasiga, xotin va farzandlariga o'rin ajratib bersa, uyida noz-ne'matlari muhayyo bo'lib, xotin va farzandlari farovon yashasa, uyida e'tiqod, sobit olovi alangali, boshqa narsalari ham mo'l-ko'l bo'lsa, o'sha manzil muhtaramdir” deb yozilgan [1]. Bu kitobda ko'rsatilishicha, oilada ota yetakchi bo'lgani ma'qul. Shuningdek, unda ifodalangan oila va oilaviy munosabatlarga hamma rioya etishi lozim bo'lgan. Eng ahamiyatli jihati shundaki, unda er-xotinni o'zaro sodiq, g'amxo'r, mehribon bo'lishlari lozimligi va ayolning haq-huquqini himoya qilish o'sha davrda ham qonun darajasiga ko'tarilganligi ma'lumdir. Umuman olganda, zardushtiylik davridanoq oila masalalariga katta e'tibor qaratilgan bo'lib, bu esa oilaning jamiyatda tutgan o'rni va mavqeyini mustahkamlash uchun azal davrlardanoq zamin yaratilganligini kuzatamiz.

Eramizdan avvalgi davrda Vavilonda nikoh shartnomasiga amal qilingani haqida ma'lumotlar mavjud. O'sha paytda agar turmushga chiqqan ayol biror-bir sabab bilan eridan voz kechsa, oila sha'nini erga urisa yoki oilada isrofgarchilikka yo'l qo'ysa, nikoh shartnomasiga muvofiq bunday xotinni eri qul sifatida sotishga haqli bo'lgan. Tarixiy manbalarda yozilishicha, ming yil muqaddam qadimgi Gretsiya va Rimda kelin-kuyov oila qurishdan avval, albatta, kelishuv shartnomasini rasmiylashtirib olgan. Unda mol-mulk munosabati va merosxo'rlar masalasi uzil-kesil hal qilingan. Eng muhimi, bunday hujjatni tuzish va imzolash hech kimga noqulaylik tug'dirmagan, uyat ham sanalmagan. XVII asr oxiri XIX asr boshlariga kelib, Fransiya, Angliya, Germaniya, Avstriya kabi rivojlangan davlatlarda nikoh shartnomasi instituti faoliyati qayta tiklangan.

1982 yilga qadar Angliyada er-xotinning mol-mulki “Umumiy qoida” (*common law*) ga muvofiq butunlay erning ixtiyorida bo'lgan. Turmushga chiqqan ayol o'z mol-mulkiga ega bo'lish yoki uni tasarruf etish u yoqda tursin, hatto bunday erkinlikdan amaliy jihatdan butunlay mahrum etilgan. Boshqacha aytganda, nikoh tuzilishi bilan kelinning mol-davlati erning shaxsiy mulkiga aylangan. Ya'ni ayol shaxs sifatida ham, mol-mulk egasi sifatida ham inon-ixtiyorini butunlay erga topshirgan.

Albatta, bunday ahvol uzoq davom etishi mumkin emas edi. Shunday ham bo'ldi. XVII asrga kelib, Angliyada “**umumiy qoida**” mulkdorlar toifasi manfaatlariga to'g'ri kelmay qoladi. Natijada turmush qurgan ayol qarindoshlarining mulkiy huquqini himoya qilish, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan mol-dunyoni saqlab qolish maqsadida ayolning alohida shaxsiy mulki institutini tashkil qilish zarurati tug'ildi. Shu maqsadni ko'zlab, bora-bora “adolat sudlari” mol-mulkning bir qismiga nikoh shartnomalarini haqiqiy, deb tan oladigan bo'lishdi. “Adolat sudlari” tomonidan ishlab chiqilgan qonun-qoidalar odatdagi oilaviy ashyolarga emas, balki shaxsiy mulkka, aniqrog'i, har qanday ko'rinishda boylikka daxldor edi. Qisqasi, XIX asr oxirlarigacha Angliyada ko'pchilik aholiga tegishli bo'lgan — (**common law**) va (**equity**) oliy tabaqalar, ya'ni mulkdorlik toifasi uchun alohida-alohida oilaviy mol-mulk qonun-qoidalar amalda hukm surib keldi. Ko'pgina g'arb mamlakatlarida nikoh shartnomalarini tuzishda nihoyatda jiddiy me'yoriy talablar mavjud bo'lib, agar unga amal qilinmasa, shartnoma haqiqiy emas, deb topiladi. Buning oqibatida bir qator ko'ngilsizliklar kelib chiqishi mumkin. Yana bir

qiziq tomoni shundaki, manfaatdor shaxslar nikoh shartnomasi bilan batafsil tanishish imkoniyatiga ega bo'lmada, lekin uning tuzilganligi to'g'risida istalgan vaqtda aniq axborot olishi mumkin [2].

Germaniyada nikoh shartnomasiga mol-mulk huquqi va qarilik ta'minoti masalalari kiritilgandagina notarial idora tasdig'i talab qilinadi, boshqa hollarda bunga hojat yo'q. Shuningdek, bu mamlakatda er-xotinning nikohdan oldingi yoki nikohdan so'ng orttirgan mulki shaxsan o'ziniki hisoblanadi. Uni har biri o'zi xohlaganidek tasarruf etadi. Oilada er-xotin bir-birining qarzi uchun javobgar emas va o'ziga tegishli mulkdangina kafolat vositasi sifatida foydalanishi mumkin. Faqat oila ta'minotini ular birgalikda amalga oshiradilar.

Nikoh bu huquqiy norma bo'libgina qolmay balki madaniyat va qadriyat hamdir. Nikoh — hayotimizning muhim jabhalaridan biridir. Nikoh tizimining tarixini va maqsadini ko'rib chiqish bizga bu ittifoqqa to'g'ri nuqtai nazar bilan qarashga va u keltiradigan barakalardan to'laqonli bahramand bo'lishga yordam beradi. Alloh ilk inson — Odam Atoni yaratdi va hayvonlarga nom berishi uchun ularni uning oldiga olib keldi. "Lekin hamon unga (*odamga*) munosib sherik yo'q edi". Shuning uchun, Parvardigor Odam Atoni qattiq uxlatib qo'yib, uning qovurg'asidan bittasini oldi va undan xotin kishini yaratib, uni Odam Atoning yoniga olib keldi [3]. Nikohni muqaddas qadriyatligi nafaqat islom ta'limotida, balki yahudiylik, xristianlik va boshqa dinlarda ham mavjud. Xususan, Sharq madaniyatining asosi bo'lgan "Avesto"da ham, turkiy xalqlar manbalarida ham, islom ta'limotida ham alohida qayd etilgan.

Hatto ajdodlarimizning muqaddas dini hisoblangan zardushtiylikda ham nikoh va oilaviy burch masalasi muhim axloqiy o'rinda turgan. Zardushtiylikda ko'p xotinlik qat'iy man etilgan. Ayni paytda umrini bo'ydoq o'tkazish ham qoralangan. Balog'atga etgan qiz ota-ona va jamoaning ra'yini pisand qilmay, qasddan turmushga chiqmay yursa, u qopga solinib, 25 darra kaltaklanish bilan jazolangan. Agar erkak kishi shu yo'lni tutsa, unga tamg'a bosilib badnom qilish maqsadida beliga zanjir bog'lab yurishga majbur etilgan. "Avesto"da qayd qilinishicha, erkak avvalo uylanish uchun moddiy va ma'naviy tomondan to'q va baquvvat bo'lmog'i lozim bo'lgan. Bundan tashqari, mazkur muqaddas kitobda oila qurish, jufti halol tanlashda shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymaslik, ota-ona, keksalar maslahatiga quloq solish xususida ham diqqatga sazovor mulohazalar mavjud. Shuningdek, unda nikoh va taloqning (*ajrashishning*) o'ziga xos mezonlari birma-bir keltirib o'tilgan. Umuman olganda, zardushtiylikda ham, islomda ham nikohda ikki tomon teng va munosib bo'lishi ta'kidlab o'tilgan [4].

Natija va muhokama. Inson sivilizatsiyasining ibtidoiy davrlarida tabular qo'llanilishi (*tabiiy va ijtimoiy*) ekzogam nikoh (*ekzogam nikoh — urug'lararo, qabilalararo nikoh*), endogamiya (*faqat bir urug' vakillari o'rtasidagi jinsiy aloqa*), bundan nikohning guruhli nikoh (*dualno rodovoy*) turi yuzaga kelgan. Guruhli nikohning yuzaga kelishi qaytanga nikoh juftlari doirasini ma'lum bir guruh a'zolari bilangina chegaralab, birmuncha, qisqartiradi. Bunday hollarda boshqa urug'dagi "erkak" bu qabilaga faqat bitta maqsadda, "nikoh" maqsadidagina kelar edi, o'zlari esa ona oilalarida yashardi va ishlashardi, ular o'zlarining "xotin"lari yashaydigan oilada hech qanday huquqqa ega emas edilar. Guruhli nikoh ikki urug'ning nikoh aloqalaridan iborat bo'lgan — nikoh munosabatlarining birinchi shakli bo'lgan. Albatta, bunday, urug'larni hali moddiy ne'matlar ishlab chiqish emas, balki bolalarni dunyoga keltirishgina bog'lab turgan. Ishlab chiqarish va bolalarni dunyoga keltirish munosabatlari bir-biridan ajratib qo'yilgan edi. Jinsiy aloqalar esa faqat bir-birlari bilan mulkiy ishlab chiqarish ishlari bilan bog'lanmagan odamlar o'rtasidagina mavjud bo'lgan [5].

Guruhli nikohda biron bir doimiy “er-xotinlik” juftlari mavjud bo‘lmaganligi sababli ular shaxsiy nikoh hisoblanmagan. Har bir ayolning nikoh jufti aynan kim bo‘lishligi urug‘ tomonidan belgilanmagan, bu faqat odamlarning xolis xohishlari, istaklarining namoyon bo‘lishi bo‘lgan xolos. Urug‘ faqat zo‘ravonlik, majburlash hollari kuzatilgandagina aralashishi mumkin bo‘lgan, ya‘ni har bir individga o‘zi qanday xohlasa, shunday yo‘l tutish huquqi ta‘minlangan. Ushbu aloqalarni zamonaviy nuqtai nazardan “nikoh” sifatida tavsiflash juda qiyin, chunki bunday uyushmalar er-xotinlar o‘rtasida huquqlar, majburiyatlar yoki umumiy javobgarlikni o‘z ichiga olmaydi.

Qolaversa, oila deb atashga asos bo‘ladigan, bolalarni boqish va tarbiyalash bilan bog‘liq bo‘lgan alohida bir muhabbat ham bo‘lmagan. Tabiiyki, guruhli nikohda u yoki bu bolaning otasi kim ekanligini aniqlash qiyin bo‘lgan. Shuning uchun bolalarning kelib chiqishi faqat ona tomonidagina hisoblangan. Urug‘ni faqat ayolga tegishli tomoni tan olingan. Bolalar faqat o‘z onasinigina bilganlar. Ularning singillari, singillarining bolalari, tug‘ishgan aka-ukalari va boshqa qarindoshlar ona urug‘ini tashkil qilgan. Guruhli nikohning moddiy asosi bo‘lib asosan uy xo‘jaligini yuritish hisoblangan, chunki bu vaqtga kelib ovchilik hamma vaqt ham urug‘ ehtiyojini qondira olmay qolgan. Bu davrda ayol uy xo‘jalik ishlari bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ishlarni bajargan va shu bilan bog‘liq holda urug‘ a‘zolari o‘rtasida o‘ziga xos hurmatga ega bo‘lgan,

Guruh nikohining moddiy asosi uy xo‘jaligini boshqarish kontseptsiyasiga asoslangan edi, chunki faqat ovchilik oziq-ovqatga bo‘lgan talabni doimiy ravishda qondira olmay qolgan edi. Bu davrda ayollar barcha maishiy mas‘uliyatni o‘z zimmalariga oldilar, natijada ular urug‘da o‘ziga xos hurmatga sazovor bo‘ldi va urug‘ oqsoqollari kengashida o‘zlarining nufuzli mavqeini o‘rnatdi.

Onalik ta‘siri bilan ajralib turadigan matriarxal davr o‘n minglab yillar davom etdi. Vaqt o‘tishi bilan guruh nikohi tarkibida o‘zaro yaqinlik asosida barqaror juftliklar shakllana boshladi. Dastlab er-xotin nikoh deb atalgan birlashmalar bir erkak va bir ayol o‘rtasida faqat birgalikda yashashni talab qilmadi. Erkaklar ham, ayollar ham bir nechta sheriklar bilan muloqot qilishlari mumkin edi. Aniqroq aytganda, bu ittifoqlarni ibtidoiy-egalitar nikohlar deb atash kerak, bu teng huquqli nikohni anglatadi. Tabiiyki, ba‘zi urug‘ a‘zolari bir nechta turmush o‘rtog‘iga ega bo‘lishlari mumkin edi. Bu davrda ko‘pxotinlilik ko‘perlilikka nisbatan kamroq tarqalgan. Taxminan 25-24 ming yil oldin bunday ikki tomonlama nikohlar urug‘lar ichidagi iqtisodiy munosabatlarning yangi shakllariga siljish va xususiy mulkning paydo bo‘lishi bilan uyg‘unlashdi. Bu yo‘lda dastlabki qadam “sovg‘a almashinuvi” deb nomlanuvchi odat edi.

Dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishi bilan urug‘ va qabilalarning har bir a‘zosi mehnat unumdorligi sezilarli darajada oshdi. Bu o‘shish natijasida iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish ko‘paydi. Har bir ishchi o‘z mahsulotini qabilaning umumiy qozoniga qo‘shgan oldingi taqsimlash modeli ishlab chiqarishning keyingi o‘shishiga to‘sqinlik qila boshladi. Bu, hatto qabiladagi bo‘sh va beparvo a‘zolarining ham o‘z majburiyatlarini oqibatsiz chetlab o‘tishlariga yo‘l qo‘yganligi bilan bog‘liq edi. Binobarin, qabila “mukofot” sifatida tayinlanadigan ortiqcha tovarlarning bir qismini qabila mulki ichida ajratishni zarur deb topdi. Ushbu mukofotlar mehnatsevarlik va chaqqonlik ko‘rsatib, samarali ishlarida katta muvaffaqiyatlarga erishgan a‘zolar uchun belgilandi. Hammaga teng taqsimlash bilan birga asta-sekin odamning imkoniyatiga, uning qabila mulkiga qo‘shayotgan ulushi miqdoriga qarab “mehnat haqi” taqsimlana boshlangan. Agar teng taqsimlanishda jamoa mahsulotidan ulush olish “huquqi”

mazkur urug'ga taalluqliligiga qarab berilgan bo'lsa (*jamo'a mulkiga qancha hissa qo'shganidan qat'iy nazar*) endi bu "huquq" mahsulot yaratishdagi ishtirokiga asoslanadigan bo'ldi. Urug'ning ayrim a'zolarida ortiqcha mahsulot, shaxsiy mulkning paydo bo'lishi, oilaning shakllanishi tomon qo'yilgan yangi qadam bo'lgan "sovg'a ayriboshlash" ni yuzaga keltirdi. Erkak kishi boshqa urug'dagi "o'z ayoliga" "mukofotini" sovg'a qilgan, Shuningdek ayol ham o'zinikini unga bergan. Toki ular o'rtasida sovg'a ayriboshlash davom etar ekan, erkak bilan ayol o'rtasidagi jinsiy aloqa ham davom etavergan. Sovg'a ayriboshlashning to'xtatilishi esa ular o'rtasidagi aloqaning ham tugashini bildirgan. Shunday qilib, nikohning yana bir turi individual juft nikoh yuzaga kelgan. Bunda ayolni o'zining qondosh qarindoshlari, ya'ni o'z urug'i erkaklari bilan teng taqsimlash munosabatlari, boshqa urug'dagi erkaklar bilan esa sovg'a ayriboshlash munosabatlari bog'lab turgan.

Shuni aytib o'tish joizki, juftli oilaning yuzaga kelishi, boshidanoq, uni o'z urug'iga qarshi qo'yishni va onalik urug'i asoslarining buzilishiga olib kelishini bildirgan. Ya'ni erkak kishi o'z mukofotini boshqa urug'dagi "o'z ayoli" va uning bolalariga qanchalik ko'p bersa, uning o'z onalik urug'iga shunchalik kam ulush qolgan. Biroq "er" hali "xotinning" va uning bolalarining yagona boquvchisi bo'lmagan. Juftli oilalarni yanada asosliroq bo'lishi uchun sovg'a ayriboshlash noadekvat bo'lishi kerak edi, ya'ni er-xotiniga, xotin eriga berganga qaraganda ko'proq berishi lozim edi, Shunday qilib u (*er*) xotinning bolalarini boquvchisi bo'lib qolishi, sovg'a ayriboshlash munosabatlari boquvchilik munosabatlariga aylanishi lozim edi. Shu bilan birga erkakni xotin va uning bolalari bilan aloqasi muntazam va uzoq muddatli bo'lib bordi.

Nihoyat (*dualno rodovoy*) qabilalararo nikoh zaminida doimiy o'rin olgan xo'jalik birligi — jamoa tashkil topdi, unga erlar o'z xotinlari va ularning bolalari bilan kirdi. Erkaklar o'z singillaridan, ayollar esa mos ravishda o'z aka-ukalaridan ajralishdi. Yangi iqtisodiy xo'jalik birligi yoki oilaning yana bir turi - juft oila yuzaga keldi, unga, asosan er, xotin va uning bolalari kirdi. Endi nikoh o'ziga xotinning bolalarini tarbiyalash va boqishni ta'minlashni maqsad qilib qo'ygan erkak va ayolning ittifoqiga aylandi. Buning uchun er-xotinning har biri o'z urug'idan olgan ulushidan, mahsulotidan foydalanishgan. Bunday ittifoq yuzaga kelishining obyektivligi mehnatiga yarasha taqsimoti rolining ortishi va teng taqsimlash rolining pasayishi bilan ortib bordi. Juft nikohning yuzaga kelishi bilan juftlar o'rtasidagi jinsiy munosabatlar nafaqat shunchaki axloqiy me'yorlar bilan boshqariladigan doiralarga, balki, ijtimoiy-iqtisodiy doiraga (*ramkaga*) kiritildi.

Unda ayolga munosabat, ayolning roli, vazifalari, nikoh shartnomasi tuzilgan va undagi shartlarga ko'ra ayol xulqiy qarashlari yoritilgan asarlarini tahlil etish orqali talabalarga mazkur muammolarning naqadar dolzarb ekanligini bayon etamiz. Sharq mutaffakirlarining barchasini g'oyaviy jihatdan birlashtirgan asos shu bo'lganki, ular shaxs tarbiyasi va kamolotida oilaning, oilaviy tarbiyaning rolini yuqori qo'yishgan, ayniqsa, shaxsning aqliy va axloqiy kamolotida oilaning o'rni, ota-ona va yaqin kishilarning yo'naltiruvchi va tarbiyalovchi vazifalariga alohida e'tibor berganlar.

Ular faqat oiladagina rivojlanishi mumkin bo'lgan sifatlar — halollik, poklik, mardlik, mehribonlik, haqgo'ylik kabi qator fazilatlarini barcha sifatlardan yuqori qo'yishlari bilan birga insondagi insoniy munosabatlarda namoyon bo'ladigan yuksak fazilatlar, avvalo, ota-onadan bolaga o'tishi va ularning jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'siri kabi qimmatli fikrlar va bu boradagi amaliy ko'rsatmalarni o'z falsafiy, estetik, sotsiologik va psixologik qarashlarida ifodalab berganlar.

Nikoh tartiblari va hayotiy tajribalariga ko'ra, kelin va kuyov nasl-nasabda, ilm-e'tiqodda, mulkdorlikda bir-birlariga teng bo'lishi ma'qul topilgan. Shu bois, Sharq xalqlarida yoshlarni oilaviy turmushga tayyorlash, ularning tengini topib uylantirishga jiddiy e'tibor berilgan. Ayniqsa, qizlarni oilaviy turmushga tayyorlashda ularda birinchi navbatda insoniy fazilatlar shakllangan bo'lishi, oilaning muqaddas ekanligi, uni avaylab-asrash aynan uy bekalariga bog'liqligi haqida ajdodlarimizdan bizgacha etib kelgan pandnoma va hikmatnomalarda aytilgan. Ko'rinib turibdiki, xalq og'zaki ijodi va diniy g'oyalar hamda hikmatnomalar og'zaki tarzda avlodlar avlodga ko'chib sayqallashgan holda saqlanib kelgan bo'lsa, xalqimiz orasidan etishib chiqqan donishmand va allomalar esa ana shunday qimmatli ma'lumotlarni xalq an'analari va qadriyatlariga tayangan holda o'z asarlarida yoritgan holda ilmiy-madaniy meros sifatida kelgusi avlodlar uchun qoldirganlar [6].

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) o'z ijtimoiy qarashlarini aks ettirgan yaxlit ijtimoiy ta'limot yaratmagan bo'lsada, lekin u ijtimoiy masalalar bo'yicha o'zining nuqtai nazarini ko'pgina qomusiy asarlarida izhor etishga yoki ular yuzasidan tanqidiy fikrlar aytishga harakat qilgan. Beruniyning muayyan qarashlari oilaviy turmush, oila va nikoh, oilaviy qadriyatlar va uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlarga xosdir. Bunday ishoralarni Beruniy hikmatlarida ham uchratamiz. "Yaxshi xulq yaxshilik alomatidir". "Buzuq niyatli va yomon axloqli kishilar o'rta kirib olishi bilan ish to'g'ri bo'lmaydi". "Tenglik hukm surgan joyda sotqin, aldanchi ehtiroslar, g'am-g'ussa bo'lmaydi. Oilaviy munosabatlarda ana Shunday hikmatlarga amal qilishimiz maqsadga muvofiqdir" [7].

Ushbu muammoga oid mulohazalar Abu Ali ibn Sinoning (980-1037) "Donishnoma", "Risolai ishq", "Tib qonunlari", "Uy xo'jaligi" kabi qator asarlari Markaziy Osiyo xalqlari axloq-odobi, tarbiya psixologiyasi, falsafa va tabobat olamida alohida o'rin tutadi. Ibn Sino oilaviy munosabatlarning turli va muhim tomonlarini yoritgan ekan, avvalo oila boshlig'i erning oldidagi mas'uliyatli vazifalarga e'tiborini qaratadi. Uning fikricha, birinchi navbatda er oiladagi tarbiyaviy ishlarga doir ham nazariy, ham amaliy ma'lumotlarga ega bo'lishi shart. Shundagina, u haqiqiy oila boshlig'i bo'la oladi. Er-xotin munosabati tenglik, hamjihatlik va o'zaro hurmat asosida qurilishi haqida to'xtalib, "Erkak kishi oila boshlig'idir, u oilaning barcha ehtiyojlarini qondirmog'i lozim, chunki bu uning birlamchi vazifasidir. Ayol esa erkakning yaxshi, munosib yo'ldoshi va bola tarbiyasi borasida eng yaxshi voris va yordamchisidir" deb yozadi Ibn Sino [8].

O'z davrining yetuk ulamosi Rizouddin ibn Faxruddin er-xotin munosabatlarining sofliги naqadar muhim ahamiyat kasb etishini e'tirof etgan holda bu masalaga Shunday yondashadi. "Go'zal muomalali bo'lmoq islom shariatining birinchi qoidalaridandir. Go'zal muomalaning eng lozim qismi xotin bilan bo'lajak muomaladir. Qur'oni Karim xotinlar bilan go'zal mushoirat etishga buyurgandir. Bunday muomala etuvchi erning dunyosi tuzuk, oxirati rohat bo'lur. Xotinga go'zal muomala qiluvchi oliy tabiatli erlar shariatu aql tarafidan man etilgan narsalarga xotinlarini yo'llamaydilar va eng aziz bolasiga bo'lgan mehru-shafqati darajasida oqibat ko'rsatib, xotinlarini barcha mashaqqatdan saqlaydilar, qurblari yetmagan xizmatga buyurmaydilar" [9].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, oila barqarorligi, shaxslararo munosabatlar ta'siri masalasiga Sharq mutafakkirlari va ma'rifatparvar ziyolilari alohida e'tibor bilan qaraganlar. Ularning asarlarida oilaning muqaddasligi, uning jamiyat hayotida tutgan o'rni, oila muqaddasligini belgilovchi muhim milliy-madaniy va milliy-psixologik omillar ko'rsatib

o'tilgan. Ayniqsa, oilaning asosini tashkil etuvchi er va xotinga xos sifat va fazilatlarining shakllangan bo'lishi, ular oilaviy burch va vazifalarini sadoqat bilan ado etishlari, bir-biriga mehribon va kechirimlilik eng muhim qadriyat sifatida e'zozlanadi. Oila barqarorligini belgilovchi shaxslararo munosabatlar ta'siriga xos qimmatli ma'lumotlar hozirgi oilaviy turmush va uning barqarorligini ta'minlashda hamda, mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va ularning taraqqiyoti jamiyatning ruhiy va ma'naviy takomillashuvida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Oila inson deb ataluvchi binoni faqat poydevorini qo'yish bilan cheklanmasdan, balki uning so'nggi g'ishti qo'yilguncha javobgardir. Ota-ona san'atkor, bola-san'at asari, tarbiya jarayoni esa san'atning o'zidir.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Ashurov A. Avestodan meros marosimlar. - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi «Xalq merosi», 2001. -32-b
2. Rizouddin ibn Fohruddin. Oila. – T.: «Mehnat», 1991. -48-64-b.
3. Qur'oni Karim. Alouddin Mansur tarjimasi. - T.: «Cho'lpon», 1992. -3-237-б.
4. Oila psixologiyasi / Психология семьи 77 Zamonaviy ta'lim / Современное образование 2019, 3(76)
5. Abu Rayhon Beruniy. Hikmatlar. - T.: «Yosh gvardiya», 1973. -174-б.
6. Irisov A. Abu Ali Ibn Sino: hayoti va ijodiy merosi. – T.: «Fan». 1980.-208-b.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 8 (3)-2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).